

XI. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT


Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2022-yilning yanvar–mart oylarida 110 892,0 ming AQSh dollarini tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 22,8 % ga kamaydi. Shu jumladan eksport hajmi 53 585,3 ming AQSh dollariga (8,8 % ga ko‘paygan) va import hajmi 57 306,7 ming AQSh dollariga (o‘zgarish su’rati - 39,3 %) ga kamaydi. Tashqi savdo saldosi minus 3 721,4 ming AQSh dollarini tashkil qildi.

**Viloyatning tashqi savdo aylanmasi
(2022- yilning yanvar–mart oylarida)**

	<i>ming AQSh dollari</i>	<i>2021- yilning yanvar–mart oylariga nisbatan % da</i>	<i>Jamiga nisbatan % da</i>
Tashqi savdo aylanmasi	110 892,0	77,2	100,0
MDH davlatlari	49 756,4	121,1	44,9
boshqa davlatlar	61 135,6	59,6	55,1
Eksport	53 585,3	108,8	100,0
MDH davlatlari	35 545,6	119,1	66,3
boshqa davlatlar	18 039,7	93,0	33,7
Import	57 306,7	60,7	100,0
MDH davlatlari	14 210,8	126,6	24,8
boshqa davlatlar	43 095,9	51,8	75,2
Saldo	-3 721,4	x	x
MDH davlatlari	21 334,8	x	x
boshqa davlatlar	-25 056,2	x	x

Ma'lumot uchun: Viloyat tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rnlarda - TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rnlarda - XSST) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'tasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

MDH va boshqa davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi yanvar-mart oylari (% da)



Viloyat rezidentlari tomonidan tashqi savdo operatsiyalari asosan Osiyo (jami Tovar aylanmasidagi ulushi 69,2 %), Yevropa (29,9 %) davlatlari bilan amalga oshirilgan bo'lib, jami savdo aylanmasining 99,1 % ini tashkil qildi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar (ming AQSh dollari)

Davlatlar	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'zgarish sur'ati, %
Turkiya	26 079,4	6 394,5	19 684,9	23,5	194,4
Rossiya	26 029,9	15 983,4	10 046,5	23,5	148,6
Xitoy	19 633,7	3 406,4	16 227,3	17,7	49,3
Qozog'iston	11 656,8	10 816,8	840,0	10,5	2,0 m.
Qirg'iziston	5 692,8	5 611,8	81,0	5,1	58,1
Turkmaniston	2 728,2	1 277,4	1 450,8	2,5	70,9
Boshqa davlatlar	19 071,2	10 095,0	8 976,2	17,2	35,6

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2022-yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 44,9 % ni tashkil etdi hamda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 121,1 % ni tashkil qildi. Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022 yilning yanvar-mart oylarida 55,1 % ni tashkil qilgan bo'lsa, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 40,4 % ga kamaygan.

**Hududlar kesimida 2022-yil yanvar-mart oylarida
eksport hajmi
(ming AQSh dollarri)**

	<i>Eksport</i>			<i>Jamiga nisbatan % ulushi</i>
	<i>2022- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan, %</i>	
Xorazm	53 585,3	49 233,2	108,8	100,0
<i>shaharlar:</i>				
Urganch sh.	7 109,2	7 866,3	90,4	13,3
Xiva sh.	2 730,6	1 566,9	174,3	5,1
<i>tumanlar:</i>				
Bog'ot	4 055,7	4 708,2	86,1	7,6
Gurlan	1 160,4	2 106,6	55,1	2,2
Qo'shko'pir	7 652,9	3 048,8	2,5 m.	14,3
Urganch	7 447,0	2 983,0	2,5 m.	13,9
Hazorasp	3 816,3	3 493,3	109,2	7,1
Tuproqqa'l'a	820,2	1 209,4	67,8	1,5
Xonqa	7 328,3	5 438,2	134,8	13,7
Xiva	1 733,5	2 814,1	61,6	3,2
Shovot	1 348,2	6 541,7	20,6	2,5
Yangiariq	1 853,5	4 871,9	38,0	3,5
Yangibozor	5 701,6	2 248,5	2,5 m.	10,6


1) Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

**Hududlar kesimida 2022-yil yanvar-mart oylarida
import hajmi
(ming AQSh dollari)**

	<i>Import</i>			<i>Jamiga nisbatan % ulushi</i>
	<i>2022- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>O‘tgan yilga nisbatan, %</i>	
Xorazm	57 306,7	94 431,1	60,7	100,0
<i>shaharlar:</i>				
Urganch sh.	17 332,7	18 661,3	92,9	30,2
Xiva sh.	2 543,7	6 474,7	39,3	4,4
<i>tumanlar:</i>				
Bog‘ot	1 394,6	5 549,5	25,1	2,4
Gurlan	2 152,6	1 570,2	137,1	3,8
Qo‘siko‘pir	991,2	2 380,1	41,6	1,7
Urganch	3 491,8	5 139,8	67,9	6,1
Hazorasp	3 523,9	3 038,2	116,0	6,1
Tuproqqał'a	2 457,2	37 711,4	6,5	4,3
Xonqa	3 111,9	3 341,2	93,1	5,4
Xiva	768,1	3 419,1	22,5	1,3
Shovot	2 263,3	3 603,9	62,8	3,9
Yangiariq	15 852,2	2 792,5	5,7 m.	27,7
Yangibozor	1 415,6	746,7	189,6	2,5


1) Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘sghan holda

**Tovar va xizmatlarning
eksport-import ko‘rsatkichlari dinamikasi**
(mln. AQSh dollari)



Tovar va xizmatlar eksport-import hajmlarining tahliliga asosan, 2022-yilning yanvar-mart oylarida eksport hajmi 53,6 mln. AQSh dollarni, import hajmi 57,3 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

Tovar va xizmatlar eksportining o‘zgarish sur’atlari dinamikasi
(o‘tgan yilga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o‘zgarish sur’atlarining tahliliga asosan, 2022-yilning yanvar-mart oylarida eksport qilingan tovar va xizmatlar o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 8,8 % ga ko‘paygan.

MDH va boshqa xorijiy davlatlarga eksport tarkibi

XSST tarkibi	<i>ming. AQSh dollari</i>			<i>Umumiy hajmga nisbatan, % da</i>		
	<i>Jami</i>	<i>MDH davlatlari</i>	<i>Boshqa davlatlar</i>	<i>Jami</i>	<i>MDH davlatlari</i>	<i>Boshqa davlatlar</i>
Jami eksport	53585,3	35545,6	18039,7	100,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	14468,9	11429,6	3039,2	27,0	21,3	5,7
Ichimliklar va tamaki	2,4	2,4	1135,0	0,0	0,0	2,1
Nooziq-ovqat xom ashyo yoqilg‘idan tashqari	1583,3	448,2	450,8	3,0	0,8	0,8
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xhash materiallar	1017,8	566,9	1050,8	1,9	1,1	2,0
Hayvon va o‘simgiliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1050,8		1,9	2,0	-	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xhash mahsulotlar	68,1	66,2	11380,2	0,1	0,1	21,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	25963,4	14583,2	0,0	48,5	27,2	0,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	40,2	40,2	3039,2	0,1	0,1	5,7
Turli xil tayyor buyumlar	4904,9	4904,9	1135,0	9,2	9,2	2,1
Xizmatlar	4485,6	3503,9	981,7	8,4	6,5	1,8

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo‘nalishi bo‘yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

XSST bo‘yicha eksport tarkibi
(ming AQSh dollari)



Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xhash mahsulotlar
Ichimliklar va tamaki	Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari
Nooziq-ovqat xom-ashyo yoqilg‘idan tashqari	Mashinalar va transport asbob-uskunalar
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xhash materiallar	Turli xil tayyor buyumlar
Xayvon va o’simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	Xizmatlar



Eksport tarkibida tovar va xizmatlar xajmi 53 585,3 ming AQSh dollarni tashkil etib, eng yuqori hajm, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (25 963,4 ming AQSh dollar) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (14 468,9 ming AQSh dollar) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

MDH va boshqa xorijiy davlatlarga import tarkibi


XSST tarkibi	ming. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	57 306,7	14 210,8	43 095,9	100,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1903,4	1296,4	607,0	3,3	9,1	1,4
Ichimliklar va tamaki	11,1	11,1	-	0,0	0,1	0,0
Nooziq-ovqat xom ashyo yoqilg‘idan tashqari	6334,2	5840,5	493,7	11,1	41,1	1,1
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xhash materiallar	538,8	485,5	53,4	0,9	3,4	0,1
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	678,4	678,4	-	1,2	4,8	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xhash mahsulotlar	3544,2	1794,4	1749,8	6,2	12,6	4,1
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	6928,0	2337,7	4590,2	12,1	16,5	10,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	31957,9	977,9	30980,0	55,8	6,9	71,9
Turli xil tayyor buyumlar	5410,7	788,9	4621,7	9,4	5,6	10,7

Import tarkibida tovarlar hajmi 57 306,7 ming AQSh dollarni tashkil etib, eng yuqori hajm mashinalar va transport asbob-uskunalar (31 957,9 ming AQSh dollari), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (6 928,0 ming AQSh dollari) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

XSST bo‘yicha import tarkibi (ming AQSh dollarari)




Tovarlar va xizmatlar importingning o‘zgarish sur’atlari dinamikasi (o‘tgan yilga nisbatan,



Shuningdek, tovarlar importi o‘zgarish sur’atlarining tahliliga asosan, 2022- yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 39,3 % ga kamaydi.

Viloyat importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi % da



2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyatga 37 ta xorijiy davlatlardan tovar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo‘lgan Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston, Koreya Respublikasi hamda Polsha hamkor davlatlaridan jami import hajmi 49 979,0 ming AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 87,2 % ini tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.